

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 209 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BYUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



MAHALLA BYUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Abdullayev Zafarbek Safibullayevich

Namangan davlat universiteti Menejment kafedrası dotsent v.b.,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

zafarbek.abdullayev555@gmail.com

ORCID: 0009-0000-2685-5398

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2025-yil 28-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-364-sonli Qarori mazmun-mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Qarorda mahalla byudjetlari va faol soliq to'lovchi mahallalarning rag'batlantirilishi konsepsiyasi joriy etiladi. Maqolada "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" nominatsiyasi, uning mezonlari, mahalla uchun ajratiladigan rag'batlantirish choralari hamda Ochiq byudjet portali va "Mahalla byudjeti" tizimi tahlil qilingan. Bundan tashqari, soliq siyosati va mahalla jamg'armalari boshqaruvi orqali erishiladigan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyatlari muhokama qilinib, izchillikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: mahalla byudjeti, soliqlarning yig'iluvchanligi, "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla", "Mahalla byudjeti" tizimi, Ochiq Byudjet portal, soliq madaniyati, rag'batlantirish mexanizmlari, mahalla jamg'armasi, barqaror rivojlanish, barqarorlik indeksi, soliq siyosati, fiskal ochiqlik, raqamli byudjet boshqaruvi.

Abstract. This article examines the substance and socio-economic significance of Presidential Decree No. PQ-364 of the Republic of Uzbekistan dated 28 November 2025, "On measures to increase the level of tax collection and to incentivize active taxpayers." The decree introduces the concept of incentivizing mahalla budgets and mahallas with active tax compliance. The article analyses the "Best Tax-Paying Mahalla" nomination, its criteria, the incentive measures allocated to mahallas, as well as the operation of the "Open Budget" portal and the "Mahalla Budget" system. In addition, it discusses the opportunities for achieving sustainable development goals through tax policy and the management of mahalla funds, and provides recommendations aimed at ensuring consistency in the implementation of these reforms.

Keywords: mahalla budget, tax collection efficiency, "Best Tax-Paying Mahalla", "Mahalla Budget" system, Open Budget portal, tax culture, incentive mechanisms, mahalla fund, sustainable development, sustainability index, tax policy, fiscal transparency, digital budget management.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность и социально-экономическое значение Постановления Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2025 года № PQ-364 «О мерах по повышению уровня собираемости налогов и стимулированию активных налогоплательщиков». В постановлении вводится концепция поощрения махаллинских бюджетов и активно уплачивающих налоги махаллей. В статье анализируются номинация «Лучшая налогоплательщик махалля», её критерии, меры стимулирования, выделяемые для махалли, а также работа портала «Открытый бюджет» и системы «Бюджет махалли». Кроме того, обсуждаются возможности достижения целей устойчивого развития за счёт налоговой политики и управления махаллинскими фондами, а также формулируются рекомендации по обеспечению последовательности и системности проводимых реформ.

Ключевые слова: бюджет махалли, собираемость налогов, «Лучшая налогоплательщик махалля», система «Бюджет махалли», портал «Открытый бюджет», налоговая культура, механизмы стимулирования, фонд махалли, устойчивое развитие, индекс устойчивости, налоговая политика, фискальная открытость, цифровое управление бюджетом.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliqlarni yig'imdorligini oshirish, byudjet ochiqqligini kuchaytirish va mahalliy boshqaruv institutlarini moliyaviy mustahkamlashga doir bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, mahalla institutining jamiyatdagi rolini oshirish hamda tadbirkorlarning barqarorlik reytingi masalari bo'yicha huquqiy hujjatlar joriy etildi. Ushbu qonuniy hujjatlar soliq madaniyatini oshirish va mahallalar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. 2025-yil 28-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-364-sonli Qarori bilan "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" nominatsiyasi joriy qilinib, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari uyg'unlashtirildi [1].

2019-yildan joriy etilgan va 2021-yildan yangilangan Ochiq Byudjet portali fuqarolarga davlat va mahalliy byudjet ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi. Portal orqali har bir mahalla kesimida jismoniy shaxslarning mulk va yer solig'i asosida shakllantirilgan jamg'arma hamda sarf-xarajatlar ko'rsatkichlari ochiq e'lon qilina boshlandi. Shu bois, PQ-364 mazmunini ochib berishda mahalla byudjetlarini tahlil qilish va soliq siyosati bilan mahalliy iqtisodiyot integratsiyasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq siyosati, fiskal barqarorlik va davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish bo'yicha milliy va xorijiy adabiyotlarda keng ko'lami ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mahalliy tadqiqotlarda asosan O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar, soliq ma'murchiligi samaradorligi, yashirin iqtisodiyot ulushi va soliq imtiyozlarining iqtisodiy faollikka ta'siri chuqur tahlil qilingan. Iqtisodiy tadqiqot institutlari, Soliq qo'mitasi huzuridagi ilmiy markazlar hamda Moliya vazirligining yillik hisobotlari soliq tushumlari dinamikasi, tarmoqlar kesimidagi soliq yukining taqsimlanishi va byudjet parametrlarining prognozlash metodologiyasiga oid muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Mavzuni o'rganishda xorijiy va mahalliy manbalar tahlil qilindi. Xorijiy adabiyotlar soliq tizimi tarkibini chuqur tahlil etadi: Baker & McKenzie firmasi Qozog'iston yangi soliq kodeksini taqdim etdi. 2026-yildan KZda asosiy stavkalar saqlanib qolishi, banklar va qimor biznesining CIT stavkasi 25%gacha ko'tarilishi va QQS 12%dan 16%ga oshirilishi ko'zda tutilganini aytadi [2].

Xalqaro adabiyotlarda soliq tizimining samaradorligi ko'proq soliq stavkalari va soliq bazasi o'rtasidagi optimal nisbat, raqamlashtirish jarayonlarining soliq intizomiga ta'siri, fiskal konsolidatsiya strategiyalari va soliq yuki iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatishi nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Louis Kaplow "The Theory of Taxation and Public Economics" nomli kitobida soliq siyosati va jamoat iqtisodiyoti bo'yicha integratsiyalashgan nazariy yondashuv, turli fiskal instrumentlar va ularning ijtimoiy hamda iqtisodiy ta'sirlarini o'rganib tahlil qilib chiqqan [3].

Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), OECD va Global Economy kabi tashkilotlar tomonidan e'lon qilinadigan ma'lumotnomalar korporativ soliq, QQS, daromad solig'i va tarmoqlar bo'yicha soliq tushumlarining xalqaro taqqoslanadigan statistik bazasini yaratadi. Bu manbalar orqali Polsha, Qozog'iston va Gruziya kabi davlatlarning soliq siyosati, soliq stavkalari, soliq bazasi shakllanish mexanizmlari hamda fiskal barqarorlikka oid tajribalarni tadqiq etish imkoniyati mavjud.

Xalqaro taqqoslamalarda PWC va OECD ma'lumotlari muhim rol o'ynaydi. Masalan, OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Qozog'istonda soliq tushumlarining eng katta ulushi (28,5%) korporativ daromad solig'i hissasiga to'g'ri kelgan (ikkinchi o'rinda tovar va xizmatlarga soliq, 25,2%). Gruziyada esa soliq tushumining 41,4% QQS, 30,8% esa jismoniy shaxslar daromad solig'idan kelgan [4].

Polshada esa soliq tizimi konsumtsion va ijtimoiy to'lovlarga asoslangan (VAT 23%, PITga 12–32% diapazon, ijtimoiy ulovlar katta ulushga ega. Mahalliy manbalarda soliq siyosati bo'yicha davlat qarorlari va tahlillar tahlil qilindi. Masalan, prezidentimiz 2025-yildan soliq islohotlari doirasida asosan QQS va aksizlarda o'zgarish bo'lmashligini, ayrim imtiyozlar (yer soliqlarini indeksatsiya qilish, IT-parklarga imtiyoz uzaytirish va h.k.) joriy etilishini ma'lum qildi.

Zarif O. Axrorov "Foydani optimal soliqqa tortishning nazariy asoslari" korporativ soliq, foyda soliqlarining iqtisodiy samaradorligi va soliqqa tortish tizimining optimal dizayni haqida yozilgan maqolasida ham ushbu soliq tizimini tushuntirib bera olgan [5].

Hukumat saytida joylashtirilgan "Fuqarolar uchun byudjet" materiallari, soliq qo'mitasi va moliya vazirligi hisobotlari ham muhim axborot manbai bo'ldi. Shu jumladan, mustaqil tadqiqotlarda soliq-ma'muriyatchiligini takomillashtirish, byudjet barqarorligini oshirish masalalari ko'tariladi. Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar va hujjatlar soliq stavkalari, bazani kengaytirish va imtiyozlar muvozanati bo'yicha qarama-qarshiliklarni ko'rsatadi, ularning barcha jihatlarini chuqur tahlil qilishga maqoladagi o'rganishlar davomida harakat qildik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida mahalla byudjeti institutini rivojlantirish, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish hamda "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" nominatsiyasi orqali joriy etilayotgan rag'batlantirish mexanizmlarining nazariy va amaliy asoslari o'rganildi. Metodologiya bir nechta o'zaro bog'langan bosqich va uslublardan tashkil topadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Yuqoridagi qarorning asosiy maqsadi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida "soliq to'lash burchi" tushunchasini shakllantirish, soliq madaniyatini oshirish hamda mahalla institutlarini soliq yig'imlarida faol rol o'ynashga rag'batlantirishdir. 2026-yil 1-yanvardan quyidagi yangi mexanizmlar joriy etiladi:

- "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" nominatsiyasi. Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla g'oliblarini aniqlash mezonlari aholi soniga nisbatan faol kichik biznes subyektlari soni va ular tomonidan to'langan soliqlar miqdori, daromad solig'i to'lovchilari soni, o'zini-o'zi band qilganlar soni va ular tomonidan to'langan soliqlar, mahalla aholisi mol-mulk va yer soliqlarining to'langanlik darajasi (ya'ni belgilangan soliq majburiyatlarining bajarilishi orqali aniqlanadi).

- Rag'batlantirish choralari. Saralangan eng yaxshi 100 mahalaga har biri uchun davlat byudjetidan yiliga 2 mlrd so'mdan "Mahalla ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi" mablag'i ajratiladi. Bundan tashqari, natijali mahallalar birinchi toifadagi loyihalar uchun davlat moliyaviy ko'magi va homiylik asosida o'tkaziladigan tanlovlarda afzalliklarga ega bo'ladi.

- Byudjetning ochiqligi. 2026-yilning 1-yanvaridan Ochiq Byudjet portalida "Jismoniy shaxslarning soliqlari hisobidan xarajatlar" moduli ishga tushiriladi. Ushbu modul orqali fuqarolar to'lagan soliqlarning davlat byudjetida qaysi yo'nalishlarda sarflangani haqidagi ma'lumotlar doimiy yangilanib boriladi. Bu soliq rahbarligi va hisobotdorlikni oshirishga xizmat qiladi.

- Eksperimental tadbirlar. Namanganda soliqlarni yig'ish mexanizmi sinovdan o'tkaziladi, ya'ni mulk va yer solig'i qarzlari elektr quvvati billing tizimi orqali undirish mumkinligi yo'lga qo'yiladi, shuningdek soliq organlari samaradorligini baholashda avtomatlashtirilgan ko'rsatkichlar kiritiladi. Bundan tashqari, 2026-yil 1-yanvardan boshlab ko'chmas mulk ijara daromadidan olingan soliq to'liq mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladi, bu mahallalarning daromad bazasini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning asosiy maqsadi bo'lib, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, soliq to'lov madaniyatini yuqori bosqichga olib chiqish hamda xususiy sektor va aholining soliq hisobotini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdir. Masalan, har bir mahalla kesimida mol-mulk hamda yer solig'i hissasiga yangi jamg'armalar ochilishi mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rag'batlantiradi bunda, fuqaro to'lagan soliqning qaysi muammo uchun sarflangani haqida ma'lumot ham taqdim etiladi. Ushbu yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalari bilan uyg'unlashib, mahalla obodligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha tuman va shaharlarda "Mahalla byudjeti" tizimini joriy etgan. Ushbu yangi moliyaviy mexanizmga ko'ra, jismoniy shaxslar to'lagan mulk va yer solig'ining 10% miqdori to'g'ridan-to'g'ri mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasiga o'tkaziladi. Ya'ni, har bir mahalla kesimida alohida jamg'arma ochilib, unga yo'naltirilgan mablag'lar, amalga oshirilgan xarajatlar va jamg'armadagi qolgan mablag'lar haqidagi ma'lumotlar Ochiq Byudjet portalida ochiq-oshkora e'lon qilinadi.

Ushbu tizimni tahlil qilish uchun mahallalarning soliq tushumlari va ularning sarflanish yo'nalishlarini o'rganish zarur. Misol uchun, 1-jadvalda mulk-yer soliqlaridan tushadigan mablag'lar va ularning mahalla jamg'armasiga o'tkazilgan foizi ko'rsatilgan. (1-jadvalda illyustrativ jadval sifatida keltirilgan va ma'lumotlar misol uchun keltirilgan)

1-jadval. Mulk-mul va yer soliqlaridan tushadigan mablag'lar va ularning mahalla jamg'armasiga o'tkazilishining illyustrativ ko'rinishi

Mahalla kesimi	Yillik mulk-yer solig'i (so'm)	Jamg'arma uchun ajratilgan qism (10%)	Jamg'armaga yo'naltirilgan mablag' (so'm)
1-Mahalla (shahar markazi)	1 200 000 000	120 000 000	120 000 000
2-Mahalla (qishloq joylari)	800 000 000	80 000 000	80 000 000
3-Mahalla (sanoat hududi)	1 500 000 000	150 000 000	150 000 000
4-Mahalla (chekka hudud)	400 000 000	40 000 000	40 000 000



Ushbu jamg'armalardan turli yo'nalishlarda foydalangan holda mahallalar o'z farovonliklari uchun zarur loyihalarni moliyalashtiradi, ya'ni ko'chalarga asfalt yotqizish, bolalar maydonchasi qurish, ijtimoiy ko'mak dasturlarini amalga oshirish va h.k. Ochiq Portalda e'lon qilinadigan har bir jamg'arma bo'yicha ma'lumotlar fuqarolarning takliflari va "mahalla yettiligi" qarori asosida sarflanadi. Shu bilan birga, mahalla byudjetlarini tahlil qilish ijtimoiy barqarorlik indekslarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Masalan, mahalla jamg'armalaridan tashqari, aholining tashabbusi va ularning investitsiyaviy imkoniyatlari integratsiyalashishi mumkin. Bunday integratsiya barqaror rivojlanish mezonlari bilan uyg'un keladi. Xususan, Barqaror shahar va mahallalarga hissa qo'shadi. Mahalla byudjeti ko'rsatkichlarini huqudii, viloyat va butun respublika kesimida kuzatib borish orqali, mahallalar soliq daromadlari va ijtimoiy xarajatlari o'zgarishini dinamik tahlil qilish mumkin.

Ochiq Byudjet portali foydalanuvchilarga har bir mahalla jamg'armasining rezidentiysi holatidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu esa loyiha samaradorligini oshirish, mahallalar o'rtasida ijobiy raqobatni rag'batlantirish va soliq to'lovchilar ishtirokini kuchaytirishga imkon beradi. Bu holatda, "eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" tanlovining mezonlari yordamida ko'rsatkichi past mahallalarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki yuqori reytingli mahallalar masalan, 1 jadvaldagi 3-Mahalla qo'shimcha imtiyozlar bilan taqdirlanadi, past reytingdagilar esa davomli yordam olishga haqli bo'ladi.

2024-yil 23-yanvarda qabul qilingan PQ-39-sonli qarorda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etildi. Bu reyting yuqori, o'rta, qoniqarli va past darajadagi korxona faoliyatini baholash tamoyillarini belgilaydi. Yuqori reytingga ega tadbirkorlar soliq imtiyozlari, mukofot va unvonlar bilan rag'batlantiriladi. Ushbu barqarorlik reytingi konseptsiyasi integratsiyalashgan iqtisodiy model bo'lib, shaffoflik va raqobatchilik asosida mamlakat iqtisodiyotini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mahallalarga joriy etilgan "eng yaxshi soliq to'lovchi" nominatsiyasi ham barqarorlik yondashuvining amaliy ifodasidir. Ya'ni, mahallalarning soliq yuki va yutuqlarini baholaydigan reyting tizimi mahalla iqtisodiyotini rivojlantirish va ijtimoiy holatini yaxshilash uchun rag'bat beradi. Bu esa kichik biznesning barqaror o'sishini, ish bilan ta'minlash va tashabbuskorlikni rag'batlantirish bilan chambarchas bog'liq.

Barqaror rivojlanish yondashuvi nuqtai nazaridan, mahalla darajasida soliq siyosatini joriy etish, mahalliy byudjetni mustahkamlash va ularni baholash quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi lozim:

1. Ijtimoiy adolat: Soliq majburiyatlarini uyg'otish va qabul qilish jarayonida past daromadli fuqarolarning og'ir yukini kamaytirish, mahalla ijtimoiy loyihalarini moliyalashtirishda ham, ayniqsa, kambag'al oilalar, yoshi katta insonlar va nogironligi bo'lganlar bilan ishlash lozim.

2. Iqtisodiy samaradorlik: Mahalliy infrastruktura va biznes muhitini yaxshilash, kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash. Soliq imtiyozlari va jamg'arma mablag'lari bilan yangi ish o'rinlari yaratish, mahalla obodonlashtirish loyihalari maktab, kasalxona, kanalizatsiyani moliyalashtirish raqobatbardosh iqtisodiy modeli tuzishga xizmat qiladi.

3. Muhit va barqarorlik: Mahalla byudjeti mablag'lari qayerda ishlatilayotganini tahlil qilishda ekologik omillarni ham hisobga olish muhim. Masalan, daraxt ekish, chiqindilarni qayta ishlash, mahalliy bog'larni rivojlantirish kabi "yashil" loyihalarga ajratmalar ko'proq berilishi lozim. Bu esa O'zbekistonning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish strategiyasi bilan mos keladi.

Ushbu yondashuvni mazmunli amalga oshirish uchun mahalla darajasida birlashtirilgan baholash modeli ishlab chiqish mumkin. Masalan, barqarorlik indeksi quyidagi komponentlardan tashkil etsin (1).

$$R = a \cdot (M/S) + b \cdot (T/I) + c \cdot (E/G) \quad (1)$$

bu yerda:

M/S – mahallaga ajratilgan mablag'lar va o'rnatilgan byudjet orasidagi nisbat (moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichi);

T/I – mahalla hududidagi jami yalpi ichki mahsulot (mahallaning iqtisodiy faolligi) va undirilgan soliqlar o'rtasidagi nisbat (samaradorlik);

E/G – ekologik tashabbuslar soni va mahalladagi yashil hududlarga ajratilgan mablag'lar summasining nisbatidir;

a, b, c – indikatorlarning ahamiyat darajasiga qarab berilgan og'irlik koeffitsientlari (ularni ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlar asosida mos ravishda belgilash mumkin).

Bu kabi model misol uchun mahallalarning barqaror rivojlanish yondashuvidagi pozitsiyasini baholash va ularni qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishda foydali bo'ladi.

Mahalla byudjetlarining amaliy holatini yoritish, soliq yig'imlaridagi o'sish dinamikasi va rag'batlantirish choralari natijalari ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Har bir mahalla uchun olingan soliq tushumlari, jamg'arma mablag'lari, ko'rsatilgan xizmatlar samaradorligi va boshqa indikatorlar haqidagi ommaviy ma'lumotlar sonli analitik usullar yordamida tahlil qilinadi. Masalan, mahalla byudjeti tahlil qilish jarayonida quyidagi amallar bajarilishi mumkin:

- Statistik ko'rsatkichlar: Soliq yig'implari hajmi, soliq to'lovchilarning o'sish sur'ati, mahalla kesimida aholi harajatlari taqsimoti.
- Diagramma va xaritalar: Hududlar bo'yicha soliq tushumlarining issiqlik xaritasi yoki bar chart'larda solishtirish.
- Asosiy ko'rsatkichlar: Mulk-yer solig'i bo'yicha daromadlar o'sishi foizi va unga muvofiq yechilgan ijtimoiy muammolar soni (maktab, bog'cha, obodonlashtirish loyihalari soni) o'rtasidagi bog'liqlik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-364-sonli Qarori soliq yig'imdorligini oshirish va fuqarolarni soliq to'loviga faol jalb qilishga xizmat qiladigan muhim huquqiy hujjatdir. Qarorda kiritilgan "eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" nominatsiyasi orqali mahallalarga iqtisodiy rag'batlar beriladi, mahalla jamg'armalariga qo'shimcha manbalar yo'naltiriladi. Ochiq Byudjet portalida joriy etilayotgan modullar orqali esa soliq tushumlari va ularning sarflanishi bo'yicha maxsus ko'rsatkichlar oshkor etiladi. Bu yangi mexanizm fuqarolarning davlat budjetiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va soliq tushumlarining manzilli ishlatilishiga erishishga imkon yaratadi.

Mahalla byudjetlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mahallalarga soliq tushumlaridan ajratmalar kiritilishi ularni o'z muammolarini mustaqil hal qilishga rag'batlantiradi. Turli hududlarning soliq daromadlari bo'yicha farqliliklari mavjud shaharlardagi mahallalar soliq bazasi boyroq bo'lsa, qishloqlarda kamaygan. Shu bois, davlat mahallalar o'rtasida salbiy tengsizliklarni kamaytirish uchun qo'shimcha mexanizmlar taklif qilishi mumkin. Bular qatoriga mahallalarning barqarorlik reytingini kiritish bo'yicha ishlar ham kiritilishi mumkin, ya'ni mahalla darajasida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholash joriy etish.

Umuman olganda, PQ-364 va unga bog'liq tashabbuslar mahalla instituti faoliyatini yanada mustahkamlash, mahalliy o'z-o'zini boshqarishni rag'batlantirish va aholi hayot darajasini oshirishga xizmat qiladi. Jahon tajribasida mahalla hamjamiyati ishtirokini rag'batlantiruvchi soliq va byudjet modeli muvaffaqiyatli misol bo'la oladi. Shu bilan birga, mazkur qaror soliq sohasida raqamli texnologiyalar va ochiqlik mexanizmlarini keng joriy etishni ko'zlaydi.

Quyidagi tavsiyalar yuqoridagi qarorining samaradorligini oshirishga yordam beradi:

- Mahalla soliq ma'lumotlari bazasini boyitish. Har bir mahalla uchun yagona elektron profil yaratish, u yerda mahallaga ajratilgan byudjet mablag'lari, soliq to'lovchi statistikasi, infratuzilma loyihalari va ijtimoiy ko'rsatkichlar saqlanadigan tizim joriy etish. Bu boshqaruv samaradorligini oshiradi.
- Mahallalararo hamkorlik. Mahallalar o'rtasida tajriba almashish maqsadida mintaqaviy «eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla» festivallari yoki forumlarini tashkil etish. Past reytingli mahallalar huquqiy-huquqiy yordam va konsultatsiyalar bilan ko'maklashish tizimini yo'lga qo'yish.
- Ijtimoiy tadbirlar va ta'lim. Fuqarolarni soliq huquqi va mahalla byudjeti tahlili bo'yicha muntazam seminarlar o'tkazish. Soliq ta'limi mashg'ulotlari orqali aholini majburiyat va imtiyozlari haqida xabardorlikni oshirish, yoshlar orasida tadbirkorlik va soliq tarbiyaviy loyihalarni amalga oshirish.
- Barqarorlik omillarini kiritish. Mahalla barqarorlik reytingi konsepsiyasini joriy etish – bu mahalla soliqlaridan tushumlar qanday muammolarga va qanday sharoitlarda sarflanayotgani bo'yicha baholash tizimidir. Mahallalarga ajratiladigan mablag'lar orasida ekologik loyihalar ulushini oshirish; "yashil byudjet" mexanizmini mahallalar darajasida yaratish. Masalan, daraxt ekish yoki qayta ishlash tashabbuslari uchun alohida ajratmalarni belgilash.
- Raqamli transformatsiya. Soliq yig'imi va mahalla byudjeti tizimlarini rivojlantirishda blokcheyn yoki boshqa raqamli texnologiyalar joriy qilish, pul oqimlarini real vaqtda kuzatish imkonini ta'minlash. Bu byudjet mablag'lari isrofgarchiligi va noqonuniylashtirish xavfini kamaytiradi.

Yuqoridagi tavsiyalar tadbiq etilsa, mahalla byudjeti tizimi yanada barqaror va fuqarolar ehtiyojlariga sezgir bo'lib boradi. Soliq siyosatining mahalla darajasida samarali amalga oshirilishi mahalla institutining jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash va mahalliy darajada integratsiyalashgan rivojlanish strategiyasini yaratishda muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-364-sonli Qarori.
2. Baker & McKenzie (InsightPlus), "Kazakhstan: New Tax Code" (02.09.2025), <https://insightplus.bakermckenzie.com/bm/tax/kazakhstan-new-tax>
3. Kaplow, L. (2008). The Theory of Taxation and Public Economics. Princeton: Princeton University Press.
4. PWC va OECD ma'lumotlari. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/06/revenue-statistics-in-asia-and-the-pacific-2025-countrynotes_0a069779/kazakhstan_70e0f6e2/788322f9-en.pdf



5. Foydani optimal soliqqa tortishning nazariy asoslari. (2024). Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(08), 85-92. https://doi.org/10.55439/AFA/vol4_iss08/472
6. O'zA (uza.uz), "Asosiy soliq stavkalari o'zgarmaydi" (2025), <https://gov.uz/oz/imv/news/view/105279>
7. PwC Global Tax Summaries: "Poland - Corporate/Individual/Other taxes" (2023), <https://taxsummaries.pwc.com/poland/corporate/other-taxes>
8. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "2024-yil uchun soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari" (QR-891-sonli, 28.12.2023)
9. World Bank/Global Economy Database - "Tax revenue (% of GDP) - Uzbekistan"

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100